




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

14.	Dilbar HAYDAROVA, Qo'rqut ota hikoyalarida mifologik ayol obrazlarining tipologiyasi	474
15.	Dilorom HAYITBOYEVA, Ubaydiy ijodida folklor an'analari	477
16.	Madina ALIMOVA, O'zbek va ingliz tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili	480
17.	Shalolaxon IBODULLAYEVA, Xalq ertaklari va adabiy ertaklar. Adabiy ertaklarning bola dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni	483
18.	Fayzulla ISKANDAROV, Na'tlarda komil inson talqini	485
19.	Nigora SARIMSOQOVA, O'zbek qahramonlik eposidagi jang sahnalari asosida talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini shakllantirishi metodikasi	489

6-SHO'BA. UMIDLI TADQIQOTCHILAR

1	Marvarid QURBONAZAROVA, Dialektal korpusda fonetik teglash: genezis	493
2	Marjona O'RALOVA, Dunyo lingvistikasida qishloq xo'jaligi dialektal birliklari bazasining tuzish tajribasi	496
3	Maftuna ABDULLAYEVA, Koson tuman shevalarida taomlarning nomlanishi (qarluq va qipchoq lahjalari) misolida	499
4	Dilzodaxon MADRAXIMOVA, O'zbek xalq ertaklarini xalqaro kataloglar asosida o'rganish tajribasi (Turk olimi Hüseyin Baydemir izlanishlari misolida)	502
5	Nigora SONDIBOYEVA, G'allaorol tumani nurobod qishlog'i shevasining lingvistik tahlili	505
6	Muxlisa JO'RAYEVA, Topishmoqlarning pragmasemantik tahlili	509
7	E'zoza MIZAMOVA "Ravshan" dostonida xalqona til: maqollar, iboralar, doimiy epitetlar	513
8	Ismigul MATKARIMOVA, Isajon Sulton hikoyalarida etnografik folklorizmlar	515
9	Malika TO'RAQULOVA, O'zbek xalq ertaklarida "Oq" va "Qora" ranglarning dualistik semantikasi	518
10	Shahnoza MAHMUDOVA, Xalq allalarida qo'llangan ba'zi dialektizmlar xususida	521
11	Mohina BOBOQULOVA, Zamonaviy o'zbek adabiyotida folklor janrlarining transformatsiyasi	527
12	Mohidil SHERXONOVA, Namangan vodiysi shevasining o'ziga xos leksikasi	529
13	Muslima AMINJONOVA, Namangan viloyati chust tumanidagi "sar sila" marosimi: an'anaviy udum va uning ramziy talqini	533
14	Dildora HUSANOVA,	536

XALQ ERTAKLARI VA ADABIY ERTAKLAR. ADABIY ERTAKLARNING BOLA DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

FOLK TALES AND LITERARY TALES. THE ROLE OF LITERARY TALES IN SHAPING A CHILD'S WORLDVIEW

Shalolaxon IBODULLAYEVA,

O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
tayanch doktoranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/ETBT8031

Annotation. *This article provides a comparative analysis of the specific features, similarities, and differences between folk tales and literary (authorial) tales, as well as their significance in shaping the worldview and spirituality of young children. From a pedagogical perspective, the study examines the impact of literary tales on children's psychology, along with their verbal, logical, and emotional development. Furthermore, it substantiates the importance of artistic texts created by the author's imagination in the socialization and cognitive adaptation of a child's personality in the modern era of the internet and social media.*

Key words: *folk tales, literary tales, worldview, child psychology, empathy, education.*

Ertak barcha xalqlar uchun eng qadimgi janrlardan hisoblanib, asosan epik turga mansub bo'lgan. U eng keng tarqalgan adabiy janrlardan biri sanaladi. Ba'zi joylarda ushuk, cho'pchak nomlari bilan yuritiladi. Xalq ertaklari qadim tarixga borib taqalganligi bois ularning ba'zilarida mifologik qarashlar unsurlari saqlanib qolgan. Shuningdek, xalqlarning maishiy turmushi, axloqiy, insoniy fazilatlarini to'g'risidagi o'y-qarashlari hayotiy va xayoliy uydirmalar asosida aks ettiriladi. Ertaklar hayotiy-maishiy, sehrli hamda hayvonlar haqidagi ertaklarga bo'linadi. Ular asosan ertakchi deb atalovchi professional ijrochilar tomonidan aytilgan. Tonggacha davom ettirilgan ertakchilik kechalarida ertak voqealarini hikoya qilish bilan birga dramatik harakatlar vositasida ko'rsatib berilgan. Bugungi kunda ham yurtimizning ayrim qismlarida ertakchilik an'analari saqlanib qolgan.

Ertaklar janr sifatida uzoq muddatli shakllanish bosqichidan o'tgan bo'lib, janriy tabiatiga xos badiiy-kompozitsion qurilishga ega. Ya'ni ular bir xil badiiy shakli qoliplar vositasida yaratiladi: kirish, boshlanma, tugun, epik sarguzasht va tugallanma ertak kompozitsion qurilishining asosini tashkil etadi.

Ertaklar asosan epik janrda yaratilgan bo'lsada, uning epigrafi, an'anaviy kirish qismi va boshlanmasi ko'pincha saj orqali ifodalanib, unda zamon va makon ma'lumotlari aks etgan. Bu ertakning ohangdorligini ta'minlash va uning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qilgan.

Ertaklarning asosiy vazifasi tarbiyaviylik hisoblanadi. "Faol va keng ommalashgan janr sifatida ertaklar kishilik jamiyatida ulkan tarbiyaviy missiyani o'tagani shubhasizdir".[2:375] Darhaqiqat, ertak eshitish bolalarda, eng avvalo, so'z boyligini oshiradi, tasavvur olamini boyitadi, badiiy idrokni shakllantiradi. Shu tariqa ular bolaning kelajakdagi dunyoqarashi va hayotiy xulosalari uchun mustahkam ma'naviy-tarbiyaviy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ko'pgina ijodkorlar ham bu haqida alohida ta'kidlab o'tishgan. Jumladan, Oybek "Bolalik" qissasida bobosi uni ovutish, aqliy salohiyatini yuksaltirish, hayot haqiqatlariga ziyrak nigohlar bilan boqishga undovchi ko'p ertaklar aytib berganini eslaydi. Hamid Olimjonning hammaga yaxshi tanish bo'lgan she'riy misralari ham bunga misol bo'la oladi [3:78].

Xalq ertaklari asosida yaratilib, folklor stilizatsiyasi, muallifning shaxsiy qarashlari va badiiy o'ziga xosligi bilan boyitilgan ertak namunalari adabiy ertak sanaladi. U ham she'riy ham nasriy usulda yozilishi mumkin. Adabiy ertaklarda barqaror epik birikmalarning berilishi, majoziy

obrazilardan keng foydalanish, voqealarning zanjirsimon borishi folklorning stilizatsiyasi sanaladi [6:65].

Shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar asrida adabiy ertaklar bolalar uchun shunchaki mutolaa emas, balki ularning ongini gadjetlar keltirib chiqarayotgan ma'naviy va psixologik xavflardan asrovchi vosita desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bugun bolalar e'tibori algoritmlar asosida tuzilgan yuzaki va tezkor vizual kontentlar bilan egallab olingan bir paytda, ertak o'qish jarayoni miyaning fikrlash va his qilish markazlarini jonlantiradi. Bu jarayon bolani ijtimoiy tarmoqlardagi tayyor tasvirlarning shunchaki iste'molchisi bo'lishdan cheklab, o'z ongida mustaqil tasavvur olamini va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ularga ekrandagi yorqin tasvirli, ammo mazmunsiz shovqinlar ichidan axloq, ezgulik, halollik va sadoqat kabi asl insoniy qadriyatlarni ajratib olishga ko'maklashadi. Yana bir muhim jihat shundaki, ekran qarshisidagi yolg'izlikdan farqli o'laroq ertak eshitish jarayonida ota-ona va bola o'rtasidagi jonli muloqot tiklanadi.

Ertaklar insoniyatning eng qadimiy va keng tarqalgan badiiy me'rosi hisoblanib, ularning bir qancha o'xshash va farqli jihatlari mavjud. Jumladan, xalq ertaklari folklorning asosi hisoblanib ular og'zaki yaratilgan va shu usulda avlodlarga yetib kelgan. Adabiy ertaklar esa muayyan ijodkorlar tomonidan yozma shaklda yaratiladi. Bir xalq ertagining bir nechta variantlari bo'lishi mumkin, adabiy ertaklar esa ijodkorning individual yondashuvi natijasi o'laroq yagona nusxada yaratiladi. Xalq ertaklarining tili sodda va ravon bo'lsa, adabiy ertaklarda badiiylilik va yozuvchi uslubi ko'zga tashlanadi. Bu ikkala turdagi ertaklarda obrazlar tizimi ham biroz farqlanadi, ya'ni xalq ertaklarida obrazlar tipiklashtirilgan bo'lsa, adabiy ertaklarda ular anchayin individual harakterga ega. Xalq ertaklari nasriy usulda yaratiladi, adabiy ertaklar esa ham she'riy, ham nasriy yo'lda yozilishi mumkin. Xalq ertaklarida makon va zamon aniq ko'rsatilmaydi, adabiy ertaklarda bu borada nisbatan aniqroq ma'lumot beriladi.

Xalq ertaklarida ham, adabiy ertaklarida ham sehrli-fantastik qahramonlar uchraydi, ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi ertaklarning asosiy g'oyasini tashkil etadi.

O'zbek adabiy ertak janrining rivojlanishida G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Quadrat Hikmat, Xudoyberdi To'xtaboyev kabi ijodkorlar asosiy o'rin tutadi. Bugungi kunda ham adabiy ertaklar bolalar adabiyotida muhim ahamiyatga ega. Bu borada Z.Diyor, S.Jo'ra, Q.Muhammadiy, Sh.Sa'dulla, A.Rahmat, P.Mo'min, Q.Hikmat, U.Qo'chqor, D. Rajab, K.Turdiyeva, Z.Ibrohimova, M.A'zam, T.Adashboyev, S.Barnoyev, A.Obidjon, H.Imomberdiyev kabi ijodkorlarning asarlari aytib o'tish joiz.

Adabiy ta'limda hech bir manba bolalarga ertaklarchalik kuchli ta'sir eta olmaydi. Shu bois nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotida ham ertaklar bola shaxsiyatini o'stirish, uning dunyoqarashini kengaytirishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barakayev R. Abdulla Avloniy va o'zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent: Fan, 2004.
2. Quronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013
3. Suyumov A, Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi. 1995.
4. Barakayev R. Ashurov B. Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar. – Toshkent: Akademnashr, 2014.
5. O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon / nashrga tayyorlovchilar: Irisxo'jayeva S, Qayumov H. – Toshkent: Fan, 1989.
6. Rajabova R. O'zbek bolalar adabiyotida folklor janrlari stilizatsiyasi (nasriy ertak va topishmoq misolida): filol.fan.b. f.d (PhD)...diss. – Buxoro, 2020.